



DEFFERENSIYALASHGAN YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYA BERISH AHAMIYATI

Bovanova Umida Abduvahobovna

katta o'qituvchisi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

Bo'riboeva Navbahor

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

E-mail: (umidabovanova8@gmail.com)

Tel: +998974028797

Email: (navbahorfariddinovna@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15532244>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-May 2025 yil

Ma'qullandi: 25-May 2025 yil

Nashr qilindi: 28-May 2025 yil

KEYWORDS

*differensial yondashuv,
ekologik madaniyat,
maktabgacha yoshdagi bolalar,
ekologik tarbiya, metodologiya,
interaktiv usullar.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada differentsiallashtirilgan yondashuv asosida maktab yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni o'rganilgan. Bugungi kunda bolalarda ekologik ong va madaniyatni rivojlantirish dolzarb masala bo'lib, bu borada differensial yondashuv asosida samarali metodlar va vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida bolalarning yosh, psixologik xususiyatlari, individual qobiliyatlari va ekologik bilim darajasidan kelib chiqqan holda ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish zarurligi asoslab berildi. Shu bilan birga, bolalar bilan ishlashda interaktiv metodlardan, o'yin texnologiyalaridan va ko'rgazmali vositalardan samarali foydalanish imkoniyatlari yoritildi.

Bugungi globallashtirish davrida ekologik muammolar butun insoniyat oldida dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiya qilinishi, iqlim o'zgarishlari nafaqat tabiatga, balki jamiyat hayotiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, ekologik madaniyat va ongni shakllantirish jarayonini bolalik davridan boshlab yo'lga qo'yish zarurati kuchayib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarda ekologik madaniyat asoslarini rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Bu borada differensial yondashuvning ahamiyati katta bo'lib, u bolalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali tarbiyaviy ishlarni tashkil etish imkonini beradi. Hozirgi kunda ekologik muammolar dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan bo'lib, atrof-muhitning buzilishi, resurslarning kamayishi va iqlim o'zgarishi insoniyat oldida turgan asosiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu muammolarni hal qilish va kelajak avlodning ekologik tafakkurini shakllantirishda ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bolalar yoshligidan ekologik ong va madaniyatni o'zlashtirishi, ularni atrof-muhitni asrab-avaylashga o'rgatish bugungi kunda zaruriy pedagogik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu boisdan, ekologik madaniyatni rivojlantirishda differentsiallashtirilgan yondashuv muhim o'rin tutadi.

Differentsiallashtirilgan yondashuv – bu o'quvchilar yoki bolalar guruhini ularning individual xususiyatlari, bilim darajasi, psixologik holati va qiziqishlaridan kelib chiqib, turli metod va

usullar asosida o'qitish tizimidir. Mazkur yondashuv ekologik ta'lim jarayonida bolalarning yoshi, psixologik rivojlanish darajasi va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Ushbu maqolada differensiallashgan yondashuv asosida bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish masalasi batafsil tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Tadqiqot jarayonida ekologik tarbiya, ekologik madaniyat va differensial yondashuv bo'yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Jumladan, N.V. Chasovskix, V.A. Slastenin, A.V. Mudrik kabi olimlarning ekologik tarbiya sohasidagi ishlari, G'.G'. G'ulomov, O. Nazarova, Z. Toshxo'jayev kabi mahalliy olimlarning asarlari muhim nazariy manba bo'lib xizmat qildi.

Ularning asarlarida ekologik tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati, bolalarda ekologik madaniyat asoslarini shakllantirish usullari yoritilgan.

Metodologiya sifatida eksperimental va kuzatuv usullari qo'llanilib, Toshkent shahridagi 3 ta maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar bilan amaliy ishlar olib borildi. Differensial yondashuv asosida bolalarning individual qobiliyatlari, bilim darajasi va qiziqishlari aniqlanib, ular guruhlariga ajratildi. Har bir guruhga mos metodlar tanlandi va ekologik tarbiya mashg'ulotlari tashkil etildi. O'rganish natijalari esa statistik tahlil asosida umumlashtirildi.

Muhokama va natijalar: Differensiallashgan yondashuv – bu o'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, bilim darajalari va o'zlashtirish sur'atlariga qarab ta'lim jarayonini moslashtirishga qaratilgan metodik yondashuvdir. Ushbu yondashuv zamonaviy pedagogikada talabani shaxsiy rivojlanish traektoriyasini ta'minlash vositasi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu yondashuvni qo'llash zarurati yanada ortadi. Chunki bu yoshdagi o'quvchilar tafakkuri, emotsional rivoji, bilishga bo'lgan ehtiyoji va jismoniy holati bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shuning uchun ham har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularning ta'lim olishini yo'lga qo'yish, individual yondashuvlar asosida bilim berish, mustahkamlash va baholash ta'lim sifati va natijadorligining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv, bir tomondan, kuchli o'quvchilarning ilg'orlashtirilgan topshiriqlar orqali bilimlarini chuqurlashtirsa, ikkinchi tomondan, bilim olishda qiynalayotgan bolalarga yengillashtirilgan uslublar bilan tushuntirish imkonini beradi. Shu boisdan boshlang'ich ta'limda differensiallashgan yondashuvni joriy etish o'quvchilarning ijtimoiy-psixologik muvozanatini saqlagan holda bilim olishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ekologik tarbiya bugungi kunda jahon miqyosida dolzarb muammolar sirasiga kirib borayotgan ekologik inqirozlar fonida yosh avlodni tabiatga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari — inson shaxsining shakllanishida ilk bosqich bo'lib, bu davrda bolalarning tasavvurlari, hissiyotlari va qiziqishlari tez o'zgaradi, shu bois ekologik qadriyatlarni singdirish eng samarali aynan shu bosqichda amalga oshiriladi. Ekologik tarbiya nafaqat tabiatga e'tiborli bo'lishni, balki umumiy madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat, halollik, tozalik va iqtisodiy ehtiyotkorlikni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, ekologik tarbiya bolalarda ijobiy xarakter sifatlarini – xushmuomalalik, mehribonlik, diqqatlilik va hamjihatlikni shakllantiradi. Bola atrof-muhitga mehr bilan qaraydigan bo'lsa, u o'zining ham, boshqalarning ham salomatligini asrashga intiladi. Ekologik tarbiyaning boshlang'ich bosqichdan boshlab yo'lga qo'yilishi esa keyingi ta'lim bosqichlarida ushbu tushunchalarni chuqurlashtirishga mustahkam poydevor yaratadi.

Shuning uchun ekologik tarbiyani faqat alohida fan bilan cheklab qo'yish emas, balki barcha fanlar kesimida integratsiyalashgan holda olib borish muhim hisoblanadi.

Differensial yondashuvni ekologik tarbiya jarayoniga tatbiq etish, eng avvalo, o'quvchilarning ekologik savodxonligi darajasini, ularning dunyoqarashi, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy qiziqishlarini aniqlashdan boshlanishi lozim. Ushbu bosqichda psixologik diagnostika, so'rovnoma, o'yinli testlar orqali o'quvchilarning bilim darajasi aniqlanadi. Keyingi bosqichda esa, shunga mos ravishda guruhlab ta'lim berish, differensial topshiriqlar tayyorlash va ularni ijodiy yondashuv asosida tatbiq etish talab qilinadi. Masalan, yuqori tayyorgarlikka ega o'quvchilarga tabiatdagi muammolar (masalan, chiqindilar, suv ifloslanishi) haqida kichik ilmiy loyihalar tayyorlash topshirilishi mumkin. O'rtacha darajadagi o'quvchilarga esa tabiat hodisalarini kuzatish va ularni rasm chizish, hikoya qilish shaklida ifodalash topshiriqlari beriladi. Bilim olishda qiynalayotgan bolalar uchun esa ko'rgazmalilik vositalari, o'yinli mashg'ulotlar, qiziqarli tajribalar orqali tushunchalar beriladi. Bu bilan har bir o'quvchining ehtiyojiga qarab ekologik mazmundagi bilimlar beriladi. Shuningdek, ekskursiyalar, bog'lar va daraxtzorlarni parvarishlash kabi amaliy mashg'ulotlar ham differensial yondashuvning muhim usullaridandir. Ushbu metodikalar o'quvchining ekologik muammolarni anglash, ularni hal qilishda faol ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi va ekologik ongini mustahkamlaydi.

Differensiallashtirilgan yondashuv ta'lim jarayonida har bir bolaning individualligini inobatga olish, uning bilim olishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatini chuqurroq tushunish, ta'lim dasturini individual talablar asosida shakllantirishga asoslanadi. Ushbu yondashuv Vygotskiy, Piaget, Bruner va boshqa pedagog olimlar tomonidan ta'kidlangan bo'lib, ularning tadqiqotlari shaxsiy yondashuv va individual ta'lim tamoyillariga asoslangan. Ekologik ta'lim esa inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishga, atrof-muhitni muhofaza qilish madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ushbu jarayonda differensiallashtirilgan yondashuv samarali natija beradi.

Ekologik ta'lim jarayonida differensiallashtirilgan yondashuv bolalarning qabul qilish qobiliyatini hisobga olib, har bir yosh guruhiga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ekologik ertaklar, multfilmlar va interaktiv o'yinlar orqali tabiatni tushuntirish samarali bo'lsa, maktab yoshidagi bolalar uchun esa ekologik muammolar bo'yicha ilmiy loyihalar, tadqiqot ishlari va amaliy tajribalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali bolalar tabiatni chuqurroq tushunib, uning muhofazasiga mas'uliyat bilan yondashishga o'rganadilar.

Bundan tashqari, differensiallashtirilgan yondashuv orqali ekologik ta'limni shaxsiylashtirish mumkin, ya'ni har bir bolaning qiziqish doirasiga qarab ta'lim mazmuni moslashtiriladi. Masalan, tabiatga alohida qiziqish bildiradigan bolalar uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish, amaliy tajribalarni o'tkazish hamda ekologik loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish mumkin. Bu esa ularning ekologik madaniyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ekologik madaniyat insonning tabiatga nisbatan ongli yondashuvi, uni muhofaza qilishga bo'lgan mas'uliyati va ekologik muammolarni hal qilishda faolligi bilan tavsiflanadi. Bolalar uchun ekologik madaniyatni shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim bo'lib, har bir yosh davrida turli metod va vositalardan foydalanish talab etiladi.

Yuqoridagi natijalardan ko'rinib turibdiki, differensial yondashuv asosida tashkil etilgan ekologik tarbiya jarayoni eksperimental guruhda samarali bo'ldi. Bolalarda tabiatga nisbatan e'tibor va mas'uliyat oshdi, ekologik muammolar haqida tushunchalari kengaydi.

Xulosa: Differensiallashgan yondashuvni boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiya jarayoniga tatbiq etish – zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ta'lim samaradorligini oshirish, har bir o'quvchining o'ziga xos imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish hamda ekologik ong va madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir bolaning bilish faoliyati, qiziqishlari va bilimni egallash darajasi turlicha bo'lgani uchun, ekologik tarbiya mazmuni va metodikasi ham ularning shaxsiy xususiyatlariga moslashtirilgan bo'lishi zarur. Ana shunda ekologik tarbiya sun'iy emas, balki tabiiy va ichki ehtiyojga aylangan holda o'quvchining shaxsiy rivojiga, ijtimoiy moslashuviga va tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllanishiga olib keladi. Differensial yondashuv asosida tashkil etilgan ekologik tarbiya o'quvchilarni nafaqat atrof-muhitni asrashga o'rgatadi, balki ularda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, amaliy faoliyatga tayyorlik kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi. Shu boisdan, boshlang'ich ta'lim tizimida ekologik tarbiyani samarali amalga oshirishda differensiallashgan yondashuv asosiy mezonlardan biri sifatida qaralishi lozim. Bu esa o'z navbatida, sog'lom jamiyat va barqaror ekologik muhit barpo etish yo'lida mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

Ayniqsa, interaktiv o'yinlar, tajribalar, tabiat qo'ynida o'tkaziladigan mashg'ulotlar bolalarda ekologik tafakkur, dunyoqarash va mas'uliyat tuyg'usini rivojlantiradi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, differensial yondashuv asosida olib borilgan mashg'ulotlar bolalarning ekologik bilim darajasini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, bunday yondashuv nafaqat bolalarning bilimi, balki ularning ekologik madaniyati, tabiatga bo'lgan mehr va ehtirom hissini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois, maktabgacha ta'lim muassasalari tajribasida differensial yondashuv asosida ekologik tarbiya ishlarini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlardan keng foydalanish zarur. Bu esa kelajakda ekologik mas'uliyatli, tabiatga e'tiborli va ongli yosh avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov G.G'. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020.
2. Slastenin V.A. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Moskva: Akademiya, 2018.
3. Mudrik A.V. Sotsiologiya vospitaniya. – Moskva, 2019.
4. Chasovskix N.V. Ekologik tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Moskva, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi metodik qo'llanmalari. – Toshkent, 2021.
7. Toshxo'jayev Z. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
8. Bovanova Umida Abduvahobovna. (2024). INTERNATIONAL ASSESSMENT IN LIFELONG EDUCATION AND ITS ADVANTAGES. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 2(12), 88-91. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/4/article/view/1096>